

ISSN: 2181-4562

DOI Journal 10.56017/2181-4562



IMFAKTOR  
PAGES

# JOCAA

МАДАНИЯТ ВА САНЪАТ

## Journal of Culture and Art

Volume I, Issue 4

JUNE | 2023

КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО



ISSN: 2181-4562  
DOI Journal 10.56017/2181-4562

# МАДАНИЯТ ВА САЊАТ ЖУРНАЛИ

I-ЖИЛД, 4-СОҢ

## ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО

ТОМ-I, НОМЕР-4

## JOURNAL OF CULTURE AND ART

VOLUME-I, ISSUE-4

ТОШКЕНТ – 2023

# МАДАНИЯТ ВА САНЪАТ ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО | JOURNAL OF CULTURE AND ART

№ 4 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4562-2023-4>

## БОШ МУҲАРРИР:

Халикулова Гўзал Эркиновна

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти профессори в.б., Санъатшунослик фанлари номзоди

## МАСЪУЛ МУҲАРРИР:

Мелиқўзиев Иқбол

Мамасодиқович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти кафедра мудир, профессор в.б., Санъатшунослик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

## ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ:

Касимов Нозим Козимович

Маданият ва туризм вазирлиги “Таълим ва илм-фанни ривожлантириш бошқармаси” бошлиғи, профессор

Ходжаметова Гулчира

Илишевна

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти Нукус филиали “Санъатшунослик” факультети декани, Тарих фанлари номзоди, профессор

Абдувоҳидов Фахриддин

Мелигалиевич

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти кафедра мудир, доцент, Санъатшунослик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

Кадиров Рамз Турабович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти “Саҳна нутқи” кафедраси доценти

Умаров Мамур

Боташикович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти “Санъатшунослик ва маданиятшунослик” кафедраси профессори в.б., фалсафа фанлари номзоди

Худоев Ғани Муҳаммадович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти кафедра мудир, Санъатшунослик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

Бердиханова Шахида

Нурлыбаевна

Юнус Ражабий номидаги Ўзбек миллий мусиқа санъати институти “Ўзбек мақоми тарихи ва назарияси” кафедраси мудир, санъатшунослик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

Дўсанов Раҳимжон

Раимқулович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти, “катта ўқитувчи”, мустақил тадқиқотчи

Суннатиллаев Асатилло

Суннатович

Юнус Ражабий номидаги Ўзбек миллий мусиқа санъати институти “Илмий тадқиқотлар, инновациялар ва илмий-педагогик кадрлар тайёрлаш” бўлими бошлиғи, мустақил изланувчи (PhD)

Мазкур фанлараро илмий-амалий журнал Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги томонидан 2023 йил 24 февраль куни № 065356-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Саҳифаловчи/Page Maker/Верстка: Абдураҳмон Хасанов

Таҳририят манзили: <https://imfaktor.uz>, 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2/27-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55, E-mail: [tahririyat@imfaktor.uz](mailto:tahririyat@imfaktor.uz)

© IMFAKTOR Pages, 2023 йил.

© Муаллифлар жамоаси, 2023 йил.

# МАДАНИЯТ ВА САЊАТ ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО | JOURNAL OF CULTURE AND ART

**SADIRDINOV Mo‘minjon**

*Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti  
2-bosqich magistranti*

*Ilmiy rahbar: Munojat YO‘LCHIYEVA*

*Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti  
O‘zbekiston xalq artisti, professor  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.8000725>*

## **KATTA ASHULA JANRINING IJROCHILIK XUSUSIYATLARI**

### **ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada Farg‘ona vodiysiga xos bo‘lgan o‘zbek an‘anaviy ashula janrlardan biri hisoblangan katta ashula janrining ijrochilik xususiyatlari haqida ilmiy fikr yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** katta ashula, Farg‘ona vodiysi, ijrochilik, diapazon, xonanda, xalq.

**САДЫРДИНОВ Муминджан**

*Узбекский национальный институт музыкального искусства имени Юнуса Раджаби  
Магистрант 2-го уровня*

*Научный руководитель: Мунажат ЙОЛЧИЕВА*

*Узбекский национальный институт музыкального искусства имени Юнуса Раджаби  
Народный артист Узбекистана, профессор*

## **ИСПОЛНИТЕЛЬСКИЕ ОСОБЕННОСТИ БОЛЬШОГО ПЕСЕННОГО ЖАНРА**

### **АННОТАЦИЯ**

В данной статье представлено научное мнение об исполнительских особенностях жанра большой песни, который считается одним из традиционных узбекских песенных жанров, характерных для Ферганской долины.

**Ключевые слова:** катта ашула, Ферганская долина, выступление, исполнитель, певец, народ.

**SADIRDINOV Muminjan***National Institute of musical arts of Uzbekistan named after Yunus Rajabi  
Master of Stage 2**Scientific leader: Munojat YULCHIYEVA**National Institute of musical arts of Uzbekistan named after Yunus Rajabi  
People's artist of Uzbekistan, professor*

## PERFORMANCE FEATURES OF THE BIG SONG GENRE

### ANNOTATION

This article presents a scientific opinion on the performance features of the big song genre, which is considered one of the traditional Uzbek song genres characteristic of the Ferghana Valley.

**Key words:** katta ashula, Ferghana Valley, performance, performer, singer, people.

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlariga kelib, xonandalik amaliyoti ham Hofizlik bilan bog'liq atama musiqa san'atining ustozona shakli ijrochilari orasida ommalasha boshlandi. Ayniqsa, Farg'ona vodiysida katta ashula ijrochilari faoliyati doirasida munosib o'rnini topadi. Ustoz darajasidagi xar bir mohir xonanda - ashulachilar xalq orasida muxlislari tomonidan "Hofiz" deb yuritish ommalashdi. Ungacha mumtoz xonandalar "Savtxon", "Nasrxon" yoki "Nasrchi", "Mug'anniy", "Go'yanda" nomlarida atalib kelinganligi sir emas. Shu davrdan boshlab O'zbekistonning har bir vohalarida o'ziga xos lokal xususiyatlarni o'zida mujassam etgan ijrochilik an'analari rasm bo'ldi va bu an'ananing ijrochilari "Hofiz" deb yuritila boshlandi. Har bir vohada, o'zining lokal ahamiyat kasb etuvchi hofizlari shakllandilar. Albatta bu jarayon mahalliy va shaxsiy ijrochilik uslublari negizida yuzaga kelgan.

"Hofiz" nomi bilan yuritilgan xonandalarning tarixda qancha o'tganliklari, ijrochilik an'analari, ijro talqini xususiyatlari kabi jihatlarini izohlash mushkul. Chunki, aniq tarixiy ma'lumotlar va talabga javob beruvchi mos asarlar va dalillar hozircha yetarli emas. O'tmish shoirlarining nazmiy va nasriy asarlarida keltirilgan ma'lumotlar zamondosh san'at namoyandalari, xonanda-hofizlarning xalq orasida mashhur bo'lganliklarini bildiradi [1, B.22].

Ma'lum bir musiqiy asar uch xil ko'rinishda mavjud bo'ladi. Birinchisi nota va g'azal matni, ya'ni yozuv asosida bo'lsa, ikkinchisi, ijrochi tomonidan talqin qilingan jonli ijroda va uchinchisi, tinglovchining hayotiy tajribasi (sama'-samo) va badiiy obrazlarning u tomonidan qabul qilinishi natijasida asarni haqiqiy ijro jarayoni amalga oshiriladi.

Musiqiy asar, maqom mumtoz ashulani ijro qilish faqat o'sha bastakor yoki kompozitor notaga tushirgan fikru-hayollarining talqini bo'libgina qolmasdan, ijrochi uchun o'ta murakkab jismoniy va ruhiy kechinmalardan iborat jarayondir.

Ijro badiiy jihatdan yuksak bo'lishi uchun unda xonandaning diqqati, sezgisi, idroki, tafakkuri, tasavvuri va emotsiyasi (his-tuyg'u va hayajon) va eng asosiysi ovoz ruhiyati faol ishtirok etishi zarur. Bundan tashqari uning shaxsiy ovoz sifati, tembrining go'zal va boyligi, pardalarning (intonatsiya) tozaligi, musiqiy qobiliyati va iqtidori, quvnoqligi va jo'shqinligi, dunyoqarashi va erkin fikrlashi, xarakteri va mintaliteti aks etmog'i lozim. Ushbu shaxsiy sifatlarning barchasi inson ruhiyatining o'ziga xos xususiyati, badiiy-ijrochilik ijodining tarkibiy qismi bo'lib, hali yaxshi tadqiq qilinmagan musiqiy (psixologiya) ruhshunoslik sohasiga aloqadordir.

Xonandaning ijrochilik amaliyotida intellektual va estetik, ya'ni eng nozik va go'zal oliy nafosat emotsiya shakllanadi. Ushbu his tuyg'ular xonanda ijrochilik faoliyatida o'z oldiga aniq maqsad qo'yib ongli ravishda turli vosita va yo'llardan foydalangan holda maqomlar va mumtoz asarlardagi badiiy obrazni ochib berish uchun xizmat qiladi.

Pardani his etish ham ijrochining musiqaviy mahorati, talqin sifatlarini namoyish etuvchi omil hisoblanadi. Bu omil hofizning eng muhim jihatlaridan biri, ya'ni tinglash qobiliyatining benuqson bo'lishini taqozo etadi. Har bir ijrochining pardani to'g'ri his etish va talqin etishi uning ma'naviy dunyosi, bilim va amaliy ijro ko'nikmalari bilan bog'liqdir. Hofizning ma'naviy dunyosi qanchalik boy bo'lsa, uning ijrosi shunchalik jozibali, sof va rang-barang bo'ladi.

U qanchalik an'ana va boy tajribaga ega bo'lsa, talqin etayotgan musiqiy ohanglarini shunchalik ishonarli, chuqur tushungan holda, teran his etib, barcha imkoniyatlari doirasida mazmunli tarannum (ifoda) etadi. Bu omil ham hofizning ilmi va bilimi darajasi bilan xarakterlanadi. Lekin, bu o'rinda ijrochining muntazam tarzda turli xarakterdagi musiqa namunalarini amaliy tinglash va kuylash ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Har qanday xonanda yoki hofizning musiqani, pardani mantiqan to'g'ri his etishi, undagi sezgi a'zolarida o'ziga xos amaliy tushuncha borligidan dalolatdir. Avvalo, uning sezgi a'zolariga ta'sir etish maqsadida - unda ichki his (intuitsiya)si uyg'onadi. Ong orqali ta'sir etish jarayoni esa so'z vositasida turli ma'lumotlarni unga yetkazish bilan xarakterlanadi.

Nihoyat, muntazam va davomiy tinglashlar oqibatida, amaliy urinishlar ijrochining his etish qobiliyatini rivojlantiradi. Lekin, hofizlikda ovoz talqini, aniq his etib, to'g'ri parda va ohangda ijro etish uning ongi bilan bogliq bo'lsa, eshitish qobiliyatining mukammalligi ham shu bilan bir vaqtda muhim ekanligini namoyon etadi. Shu bois bo'lsa kerak xonandalik amaliyotida ma'lum pardadan aytish an'anasi shakllangan. Eng muhim pardalarning nomi mavjud bo'lib, qaysi pardadan (tovushdan) boshlashni oldindan aniqlab olish odat tusiga aylangan. Masalan, katta ashula yoki boshqa janrlarda parda tushunchasi katta ahamiyat kasb etgan [1, B.13].

Katta ashula ijrochilik jarayonining jismoniy va ruhiy asoslarini chuqur o'rganish bo'lg'usi xonanda, o'qituvchi va tarbiyachi uchun juda muhim shartlardan biridir.

Al-Farobiy: "Musiqada ikki hil ovoz bor. Biri tabiiy ovoz bo'lib, u insonning xalqumidan taraladigan ovozidir. Uning tabiiyligi shundaki, xech bir inson ovozi boshqasinikiga o'hshamaydi, ya'ni dunyoda nechta odam bo'lsa shuncha bir-biriga o'hshamaydigan ovozlari bor. Qolaversa, o'zgarish, rivojlanish va so'nish hususiyatiga ega. Ikkinchi xil ovoz bu musiqiy cholg'ularning tovushidir. Ularning sun'iyliigi shundaki, barchasi odam ovozigacha taqlid qiladi.

Bundan tashqari bir biriga o'xshaydi, masalan: tanbur tanburga, surnay surnayga, skripka skripkaga. Ularning ovozlari odam ovozidan farqli o'laroq o'zgarmaydi hamda umri uzoq bo'ladi." degan edi. Inson qo'li bilan yasalgan cholg'udan ko'ra inson ovoz san'ati mohiyatan birlamchi hisoblanadi. Ya'ni mavjud narsa birlamchi, yasalgan jism esa ikkilamchi va sun'iydir. Shunga ko'ra ovoz tabiiy musiqiy soz bo'lganligi va boshqa inson qo'li bilan yasalgan sozlar unga taqlid etuvchi sifatida yaratilganligi aytib o'tilgan [6, B.36].

Inson xalqumidan jaranglaydigan ovoz - go'zal ovoz degan g'oya, ovozning mahoratli chiqarilishi insonning jismoniy tuzilishiga ham bog'liq. Ovozlar xatto og'iz, burun, tanglay kabi a'zolarining joylashuviga va katta kichikligiga ham bog'liqdir. Masalan: og'zi nisbatan katta, tanglayi keng, burni uzun bo'lgan xonandalar ovozi o'ta jarangdor, rang-barang, boy tembrli va yuqori pardalarda bemalol ovozi qiynalmay chiqib tushadigan qobiliyatga ega bo'ladilar. Bundan tashqari bo'y uzunligi, o'pkaning kengligi ham yetuk ovoz sohibi bo'lishda katta ahamiyatga ega.

Ovozlarning tozaligi va keng ko'lamliligi tabiiy iqlim sharoitiga ham bog'liq. Masalan, dengiz yoki okean bo'ylarida yashovchi xonandalar ovozi juda jarangdor bo'lib, erkak xonandalarning ovozlari juda go'zal, rang-barang tembrga ega bo'ladi. Issiq o'lkalarda, ya'ni ekvatorga yaqin mamlakatlarda xonandalarning ovozlari nisbatan quruqroq yoki jarangdorligi nisbatan pastroq bo'lib, tenor va bariton ovozlari ko'plab uchraydi.

Ekvatoridan Shimolga tomon surilib borgan sari ovozlari turi kamayib tenor, bariton, bas va yo'g'on bas kabi ovoz ko'lami va turlari yo'g'onlashib boradi. Shimoliy Muz okeaniga yaqin mamlakatlarda esa bas ovoqli xonandalar ko'payadi. Bu ko'pchilik olimlar tomonidan sinalib, aniq dalillar bilan isbotlangandir.

Katta ashula ijro etishga jazm etgan xonandaning ovoz ruhiyatiga ham e'tibor berish darkor. Ovoz ruhiyati deganda biz uning tembri, yo'g'on yoki nozikligi, harakatchanligi yoki og'irligi, jarangdorligi yoki tuntligi, kuchliligi yoki kuchsizligi hamda rang-barangligini ko'zda tutamiz. Inson ovozi ruhiyati qanday bo'lsa uning karakteri ham shunday bo'ladi. Ya'ni, inson ruhiyati ovoz ruhiyati bilan mos keladi. Masalan, inson og'ir, bosiq, beg'am bo'lsa, bunday kishilar ovozlari pastroq va dramatik karakterga ega bo'ladi. Chaqqon, doim shoshilib yuradigan, jaxldor xonandalarning ovozlari esa yuqoriroq bo'lib, lirik karakterga ega bo'ladi. Lekin ko'rinishdan o'zi og'ir-bosiq bo'la turib, ovozi lirik tenor xonandalarni ham uchratish mumkin. Yoki aksincha, sho'x, shovqin-suronli xonandalarning ovozlari dramatik bariton yoki bas ovozli bo'lishlari mumkin. Bu holat faqat o'ndan bir qismiginasini tashkil etadi.

Zamonaviy xonandalik pedagogikasi qadim tajribalarga, ichki hissiyotlarga ishonch, boy ijrochilik mahoratiga asoslangan bo'lib, xonandalikdan dars bera olish o'quvchini bu borada to'g'ri yo'naltira olishni nafaqat ilm, balki san'at deyish to'g'ridir. Qadimda kuylashga o'rgatish san'ati sir saqlanib kelingan. Chunki mohir ijrochi bo'lish, tajribalar orttirish uchun xonandadan juda katta vaqt, kuch, bilim talab etilgan. Ammo hozirgi kunda tizim ancha o'zgargan. Lekin ustozning siri masalasiga keladigan bo'lsak, har bir ustoz o'z o'rgatish uslubiga ega.

Kimki xonandalikni o'rganmoqchi bo'lsa, albatta o'zining daslabki ijodlaridanoq ovozinin ruhiyati va qaysi turga mansub ekanligini aniqlab olmog'i lozimdir. Buning uchun ikkita ovoz bo'yicha mutaxassis o'qituvchi va bir shifokor ya'ni, otorinoloringolog kabi mutaxassislardan hay'at tuzilib, tekshirilmog'i shart. Bu hay'at a'zolari asosan bo'lajak xonandani uch xil iqtidoriga baxo berishadi: birinchisi; eshitish qobiliyati, ikkinchisi; ovozning ko'lami yoki kaysi turga mansub ekanligini aniqlash, uchinchisi; ovoz apparati, nafas va eshitish tizimini kasalliklardan xoli, sog'lom ekanligini tekshirish. Daslabki ikki tekshiruv natijasini ya'ni, eshitish qobiliyati va ovoz turini xonanda mutaxassislar aytib berishlari lozim. Ovoz apparati, nafas va eshitish a'zolari tashxisini esa shifokor otorinoloringolog aniqlashi ko'zda tutiladi. Ovoz ruhiyatini, qaysi turga mansub ekanligini bir ko'rishda aniqlash qiyin albatta. Qayta tekshiruvlardan hamda shifokorning tashxisidan so'ng aniq bir xulosaga kelish mumkin.

Ma'lumki ovoz qanchalik yo'g'on bo'lsa, tovush hosil qilishda yutqin harakati shunchalik ko'payadi va ovoz paylarining baquvvatligi seziladi. Ovoz qanchalik baland bo'lsa aksincha ovoz paylari shunchalik ingichka va yutqin nozik bo'ladi.

Har bir xonanda o'z ovoz tessurasini ya'ni, turini faoliyatining daslabki pog'onalaridanoq aniqlab olishi lozim. Aks holda tovush sifatini buzish kabi salbiy holatlarga olib keladi. Agar ovoz baland bo'lsa past pardalarni ijrosiga harakat qilish besamardir. Aytaylik ovoz past bo'lsa yuqori pardalarga chiranib chiqish ovoz paylarini zo'riqtirish orqali oqibatda buzilishiga olib keladi. Hayotda bu kabi ovoz sifatini buzib qo'yish hollarining ko'plab misollarini keltirishimiz mumkin.

Ovozlarni turga ajratish har qanday bilimdon ustoz uchun ham qiyin kechadi. Masalan: bir o'quvchini ovozini u yoki bu turga mansub ekanligini aytish uchun avvalo ovozning tembriga ya'ni, ovozning rangiga e'tibor beriladi. So'ngra uning ko'lamiga nisbatan ovozlar turlarga ajratiladi. Ba'zida shunday ovozlar uchraydiki, tembr jihatidan yo'g'on ya'ni, bariton bo'lsa-da, ko'lam jihatidan ovozinin yuqori pardalari tenor kabi bo'ladi, yoki ovozi mayin yumshoqligi tenorlar singari bo'lsa ham ko'lami kichikroq ya'ni, yuqori pardalarni ijro eta olmasligi mumkin.

Agar tibbiy tomondan olib qaraydigan bo'lsak, erkaklarda ovoz paylari va rezonatorlari hajmi nisbatan kichik bo'lsa, u albatta tenor yoki alt ovoz turidir. Qancha ovoz yo'g'onlashgan sari ovoz hosil qiluvchi a'zolarining hajmi shunchalik kengayib boradi. Lekin aytishlaricha taniqli xonanda Koruzoning ovoz paylarining hajmi baslarnikidek bo'lsada uning ovozi lirik tenor ekanligini hech kim rad eta olmaydi.

Tajribali ustozlar ovoz kuchi va quyuqligi jihatidan bariton lekin ko'lam jihatidan tenorga o'xshagan ovozlarni turga ajratish uchun shu xonandaga yuqori pardalarda so'z aytirish orqali bilishadi. Shunda agar ovoz tenor bo'lsa avjlardagi so'zlarni aniq va qiyinchiliksiz talaffuz etishadi, aks hollarda bariton yoki bas ovozinin og'iz artikulyasiyasi va nutqi past pardalardagi kabi bemalol emas, aksincha, ulgurmaydi hamda qiynaladi.

Bundan tashqari ularni turlarini aniqlashda tashqi ko‘rinish muhim ahamiyatga ega. Agar ozg‘in, harakatchan, salga jahli chiquvchi harakterga ega bo‘lsa bu odam tenor bo‘ladi. Mobodo uzun bo‘yli, kam harakat, kam gap og‘ir va salobatli bo‘lsa, bilingki u albatta bas ovozli xonandadir.

Yosh xonanda o‘qituvchilarimizning ichida oqilona dars berib, yaxshi ko‘rsatgichlarga ega bo‘layotganlari ham bor. Lekin yosh xonandaning ovoz ko‘lamini aniqlamay turib, ovozni qiynash, ortiqcha zo‘riqtirish va oqibatda ovozi sinib ketayotgan xonandalarimiz ham topiladi. Bu albatta o‘qituvchini tajribasizligidan kelib chiqadigan nohush holatdir.

**ИҚТИБОСЛАР/СНОСКИ/REFERENCES**

1. Begmatov S. Hofizlik san'ati. Toshkent, 2007.
2. Matyoqubov O. Maqomot. Toshkent: "Musiq", 2004.
3. Matyoqubov O. Og'zaki professional musiq asoslariga kirish. Toshkent: "O'qituvchi", 1983.
4. Mamadaliev Fattohhon. Milliy musiq ijrochiligi masalalari. Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2001.
5. Mulla Bekjon Rahmon o'g'li, Muhammad Yusuf Devonzoda. Xorazm musiqiy tarixchasi. Toshkent: 1998.
6. Nazarov A. Farobiy va Ibn Sino musiqiy ritmika xususida. Toshkent: "G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti", 1995.
7. Oyx'o'jaeva Sh. Maqom taronalari. Toshkent. 2011.
8. Rajabiy Yunus. Muzika merosimizga bir nazar. Toshkent: "G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti", 1978.

ISSN: 2181-4562  
DOI Journal 10.56017/2181-4562

# МАДАНИЯТ ВА САЊАТ ЖУРНАЛИ

I-ЖИЛД, 4-СОН

## ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО

ТОМ-I, НОМЕР-4

## JOURNAL OF CULTURE AND ART

VOLUME-I, ISSUE-4

«Маданият ва санъат» электрон журнали 2023 йил 24 февраль куни № 065356-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Муассис: «IMFAKTOR Pages» масъулияти чекланган жамияти.

Таҳририят манзили: 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55

Эл. почта: [tahririyat@imfaktor.uz](mailto:tahririyat@imfaktor.uz)

Веб-сайт: [www.imfaktor.uz](http://www.imfaktor.uz)